



## O'QUVCHILARNING O'QUV-BILUV MOTIVATSIYASINI MUSTAQIL ISHLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

**Turumbetova Aygul Yusupbayevna**

*Ajiniyaz nomidagi Nukus DPI*

*Ijtimoiy va gumanitar fanlarni masofadan o'qitish kafedra o'qituvchisi*

*turumbetova88@mail.ru*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079333>

***Annotatsiya.** Maqolada ta'lim-tarbiya sohasi, zamonaviy metodika, o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishi, matn yaratish ko'nikmasi, asar matni ustida ishlash turi.*

***Tayanch so'zlar:** Boshlang'ich sinf, mustaqil ishlar, metodika, motivatsiya, o'qish darslari, matn tahlili.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning o'qish savodxonligiga erishish uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini boshlang'ich ta'limdan boshlab zamonaviy yondashuvlarni taqozo etadigan, ilmiy-metodik muammolardandir. Negaki o'qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, tom ma'nodagi savod tanishdan tortib intellektual salohiyatli shaxslik sifatlarini egallashgacha bo'lgan davrni ichiga qamrab oladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligiga erishishda mustaqil ishlar vositasida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Chunki aynan shu jarayonda o'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishga yuzma-yuz to'qnash keladi. Berilgan mustaqil ish topshirigi o'quvchining bilimlarini o'zlashtirishga doir o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi oddiy matn tarkibini tashkil etgan o'quv materialini to'g'ri o'qish, tushunish va anglash darajasi bilan belgilanadi. O'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligiga matn tahlili asosida erishish mehanizmlari jahondagi xalqaro baholash dasturlarida kretik, kommunikativ, kreativ, kollegial ko'nikmalarning bosh harflaridan tashkilotgan “4 K” tarzida nomlanmoqda.

O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish orqali o'qish savodxonligi boyicha xalqaro baholash dasturlarida qoyilgan talablarga erishish ko'p jihatdan o'quv materiallari sifatiga bog'liq. Bu borada darslik materiallari muhim manba vazifasini o'taydi. “Zamonaviy darsliklar, - deb yozadi tadqiqotchi N.Dushanova, mobilligi va o'quvchida darslikni o'qigan vaqtida “comfort time” taqdim etishi hamda shaxsga yonaltirilganligi, egallagan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishi bilan an'anaviy tamoyila asosida yaratilgan darsliklardan farq qilishi kerak. [1] Olima mazkur tadqiqot ishida bilim olish, o'qishga, bilishga bo'lgan ehtiyojining shakllanishi, umr bo'yi o'rganish uchun



Comfort time tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etishini to'g'ri ta'kidlaydi. “Boshlang'ich ta'limda,- dep yozadi jizaaax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi N.Xaitova,-o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirishning bilishga qiziqishni intensiv rag'batlantirish, o'qitishning innovatsion yo'nalganligini oshirish, funktsionallikning o'sishi, emotsional zoriqishning oldini olish kabi pedagogik shart-sharoitlar”[2] muhim o'rin tutishiga alohida urg'u beradi. O'qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida badiiy asarlarning janri xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ishni taqozo etadi. Masalan, tabiat tasviriga doir matnlar ustida ishlashda tabiat bagriga sayohatlar uyushtirilib, o'quvchilarni kuzatuvchanlikka odatlantirish, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili orqali ijodkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish yoxud mavzuga aloqador filmlar namoyish etish asosida amalga oshirilsa, o'quv-biluv motivatsiyasi shakllanishiga muayyan darajada erishib boriladi. Boshlang'ich ta'lim metodikasida o'qish darsliklaridagi o'quv materiallarni o'zlashtirishga doir mustaqil ishlarni bajarishning aniq metodik usullari mavjud.

Lekin ular boshqa topshiriqlar bilan bog'liq holda hal qilinadi. O'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir mustaqil ishlar turkumi o'quvchilardan intellektual va jismoniy kuchlarni talab qiladigan, muayyan bilimlarni egallashga, amaliy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiruvchi, muammoli vaziyatlar yechimini topish hamda vazifaga ijodiy yondashishini taqozo etadi. Professor B.To'xliyev mustaqil ishlarni maqsadiga ko'ra quyidagilarga ajratadi:

1. Yangi bilimlarni o'zlashtirishni ko'zda tutadigan mustaqil ishlar.
2. Olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq mustaqil ishlar.
3. Takrorlash bilan aloqador bo'lgan mustaqili ishlar.
4. O'quvchilarning olgan bilimlari, egallagan ko'nikma va malakalarini tekshirish, nazorat qilish uchun qo'llaniladigan mustaqil ishlar [3]. Jahon amaliyotida yoshlarning ta'lim shaklini erkin tanlash, intellektual o'sishini ta'minlovchi o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish, ijodiy xarakterdagi faoliyat turlarini tashkil etish tendensiyasi kuzatiladi. Ta'lim oluvchilarning individual perspektivasini yaratishda shaxsga yo'naltirilgan refleksiv qobiliyatlar, hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirish hamda o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi.

Dunyoda ta'lim oluvchilarning kreativ rivojlanish trayektoriyasini belgilash, selektiv hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quv faoliyatini rag'batlantirish va motivlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, shaxs sifatida o'zini o'zini rivojlantirish kompetensiyalarni faollashtiruvchi vositalarni tanlash, o'rganilayotgan muammoga tizimli yondashish,



mantiqiy tafakkurni shakllantirishda o‘quv fanlarining mazmuni qatori bilishga intilish yo‘llarini takomillashtirishga doir mustaqil ishlarni tashkil etish mexanizmi tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta‘lim mazmunini xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirish, o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga doir yangi davlat ta‘lim standartlari, “Milliy o‘quv dasturi”, integrativ yondashuvga asoslangan darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar yaratilmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda belgilangan “kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta‘sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘shni mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish” vazifalari boshlang‘ich ta‘lim mazmunini ilg‘or tajribalar asosida isloh qilish, o‘quvchilarda kichik yoshidan bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarni rag‘batlantirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim sohasidagi dolzarb muammolar aksariyat o‘quvchilarda bilim olish motivlarining yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Shu bois ularda o‘zlashtirish darajasidagi asosiy ko‘rsatkichlar pasayishiga olib keladi. Turli darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun o‘quv faoliyati har xil ma‘noga ega. Muayyan holatda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘quv-biluv motivatsiyasi va mustaqil ishlar mohiyatini aniqlash o‘qituvchining pedagogik ta‘sir choralarini belgilashida hal qiluvchi o‘rin tutadi. [4]

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarni o‘qishga, o‘quv faoliyati usullarini egallashga o‘rgatish asosida o‘rganishga qadriyatli munosabatni shakllantirish turli axborot manbalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, bilish faolligining samarali usullarini qo‘llashga o‘rgatish; o‘zi o‘rganayotgan narsa-hodisalarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishiga tegishli shart-sharoit yaratiladi. Boshlang‘ich sinflar “O‘qish” darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faolligini oshirish orqali mustaqil fikrlashni shakllantirish, mavzularda ilgari surilgan g‘oyalarni anglab yetish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tegishli xulosalarga kelish imkoniyati ortadi. Badiiy matn ustida ishlashga oid mustaqil ishlarni uyushtirishda, avvalo, nazariy ma‘lumotlar, audio, videoyozuvlar, ijodkor fotosurati yoki filmlardan lavhalar bilan tanishtirish o‘quvchilarda asardan o‘zlari uchun qiziqarli axborotni aniqlash va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlariga tayanib, tushunish va baholash kabi o‘quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga imkon beradi. Boshlang‘ich maktab yoshidan o‘quvchilarida o‘quv faoliyati uchun barqaror



motivatsiyani shakllantirishda o‘quv materialining mazmuni, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, ta‘lim sub‘ektlarining jamoaviy shakllari, o‘quv faoliyati va uni baholash, o‘qituvchining pedagogik faoliyati va uslubi jarayonga ta‘sir qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. O‘quvchining ichki psixologik xususiyati bo‘lgan motivatsiya tashqi ko‘rinishlarda, uning atrofdagi dunyoga, turli xil faoliyat turlariga va qiziqishlariga munosabatida o‘z ifodasini topadi. Motivsiz yoki zaif motivli faoliyat umuman amalga oshmaydi yoki beqaror bo‘lib qoladi.

### Adabiyotlar

1. Duschanova N, S. Adabiyot darslarini, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish (xalqaro baholash dasturlari misolida); P f f d (PhD) diss. avtoref. Chirchiq. 2023.-16-bet. (54).
2. Xaitora N.F. Boshlangich tálimda geymifikatsiyadan foydalanish orqali oquvchilar óquv-bilish motivatsiyasini rivojlantirish (1-sinflar misolida). P f f d (PhD) diss. Avtoref. Chirchiq. 2023. – 7-bet. (51).
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 137-b.
4. O‘zbekisto Respublikasi Prezidentining 2029 yil 29 apreldagi PF-5712-son O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4312785>